**Alisherov Muhiddin Madamin o‘g‘li**
Namangan davlat universiteti Sirtqi (maxsus sirtqi) dekan o‘rinbosari
E-mail: muhiddina@mail.ru

# MURABBIY FAOLIYATINING KASBIY SIFATLARI VA ULARNING AHAMIYATI

**DOI:** https://doi.org/10.5281/zenodo.8394886

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sportchilarni tayyorlash jarayonida murabbiy faoliyatining kasbiy sifatlari va ularning ahamiyati hamda hususiyatlari mamlakatimiz va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarini tahlili bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** murabbiy, sportchilar, kasbiy sifatlar, kasbiy faoliyat, sportchilarni tayyorlash

## KIRISH

Amaliyot sport murabbiylarining kasbiy-psixologik tayyorgarligini ta’minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish, ta’lim muassasalarida sport murabbiylarining kasbiy kompetentligini yuqori darajada rivojlantirish, ularni o‘qitish va malakasini oshirishning metodik jihatdan ilg‘or pedagogik va psixologik uslubiy tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zaruriyatini taqozo etmoqda. Sport murabbiylarini tayyorlashning yangi texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyoji ortib, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini ommaviylashtirishga katta e’tibor berilmoqda.

Ko‘pgina jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muassasalarda murabbiylik faoliyati darajasini takomillashtirish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, yuksak malakali murabbiylarni tayyorlashda shaxsiy va kasbiy sifatlari, pedagogik hamda psixologik modeli, shaxsga xos didaktik, kommunikativlik, boshqaruvchanlik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, murabbiy faoliyatining individual uslubi, boshqaruv tiplari sportda pedagogik mahorati hamda uning sport texnikasi, o‘qitish usullari bo‘yicha malakaga ega bo‘lishi, o‘quv jarayonini va tanlovlarni nazorat qila olishi hamda oldindan jarayonni baholashni to‘g‘ri tashkil etish qobiliyati ilmiy-uslubiy asoslari, bo‘lg‘usi sport murabbiyi kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda murabbiylar kasbiy tayyorgarligiga nazariy, amaliy, metodik yondashish hamda kasbiy tayyorlashning tuzilishi va uning metodikalarini takomillashtirish, murabbiylik faoliyatida zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni aniqlash masalalari tadqiq etilgan.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga11 yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishda kasbiy masalalarga alohida vazifalar belgilangan. Murabbiylik faoliyatining ijodiy komponentlari, uning insoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlik holati, kasbiy faoliyatdagi ma’naviy va axloqiy munosabatlar, inson qobiliyatlari va maxsus qobiliyatlarning kasbiy faoliyatning samaradorligiga ta’siri, shaxslararo munosabatlarning murabbiylik faoliyatidagi ahamiyati, murabbiy va sportchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni kabi masalalar qisman yoritib o‘tilgan. Murabbiylik faoliyatining ijtimoiy mazmunini, ularni kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlashning metodikalarini tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Respublikamizda bir qator tadqiqotchi va olimlar tomonidan murabbiylik faoliyati,

sport murabbiylarining kasbiy tayyorgarligi, kasbiy kompetentligi, murabbiylarga xos kasbiy fazilatlar, murabbiylarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish borasida e'tiborga molik izlanishlar olib borilgan. Bunda asosan murabbiylik faoliyatida sportchilarni tayyorlashning pedagogik va psixologik masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi olimlardan E.G'.G'oziyev, Z.G.Gapparov, M.M.Mamatov, Y.N.Masharipovlar muammoning sof psixologik jihatlariga va musobaqa muhiti omillari orqali yoritishga keng e'tibor qaratishgan. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini takomillashtirish ishlari R.D.Xalmuxamedov, F.A.Kerimov jismoniy tarbiya o'qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni va sifatiga davlat talablarini takomillashtirishning tashkiliy-metodik jihatlari T.S.Usmanxodjayev, A.N.Abdiyev jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasb mahoratini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari N.T.To'xtaboyev tomonidan pedagogik jihatdan yetarlicha tadqiq etilgan.

Pedagog va psixolog olimlardan G.D.Babushkin, Ye.D.Belova, I.S.Dyatlovskaya, A.A.Derkach, A.A.Isayev, Ya.A.Korx, A.A.Lalayan, Ye.P.Ilin, G.V.Lojkin, M.V.Sanayalar murabbiylik faoliyati va murabbiy shaxsining o'ziga xos psixologik xususiyatlari borasida ilmiy izlanishlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlar orqali kasbiy kompetentlik, murabbiylarga xos kasbiy fazilatlar, murabbiylar kasbiy-psixologik tayyorgarligi, murabbiy shaxsi va uning kasbiy sifatlari, murabbiy pedagogik faoliyatining psixologik strukturasi, loyihalash qobiliyati, kasbiy ahamiyatli sifatlari, murabbiy faoliyatining individual uslubi, boshqaruv tiplari va murabbiylik, sportda pedagogik mahorat va uning pedagogik, psixologik jihatlari kabi qator masalalar keng tadqiq etilgan.

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish, pedagogik kuzatuv, (Kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarni aniqlash M.A.Dmetreeva, Murabbiy pedagogik faoliyatining individual uslubi M.E.Melnik, Kasbiy tayyorgarlikni o'rganish L.N.Kabardova), taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Shaxs biror faoliyatda samarali ishtirok etishi uchun u avvalo pedagogik va psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Jumladan, sport faoliyatida ham zamonaviy sportda ham psixologiyaning rolini kuchaytirish nafaqat sportchini, balki murabbiyni ham psixologik tayyorlashni talab qiladi. Mazkur tarbiya jarayoniga mas'ul bo'lgan murabbiy uchun psixologik tayyorgarlik oddiy sportchiga qaraganda kam emas.

Ye.P. Ilin fikricha, sport sohasida murabbiy va sportchi o'z-o'zidan psixologning vazifalarini bajarishi kerak [4]. Sportchilarni tayyorlashda psixologik omillarning ahamiyati ortib borishi munosabati bilan murabbiy bir qator psixologik muammolarni hal etadi.

G.D. Gorbunovning ta'kidlashicha murabbiylar shuni unutmaslik kerakki, sportchining biror sport turini boshlanishidan oldin uning sport bilan shug'ullanish motivlariga, sportchining shaxsiy fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi, sportda muvaffaqiyat qozonish sirlari, murabbiy va sportchilar o'rtasidagi mavjud munosabatlarning mazmuni, jamoadagi jipslik va yetakchilik uslubi kabilar haqida yaxshi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i lozim [1]. Ammo, bu bo'lajak murabbiylarning oldida turgan vazifalarning to'liq hammasi emas.

I.A. Grigoryans ta'rificha, sportda psixolog ham murabbiy bilan birga qator jiddiy psixologik muammolarni hal qilishi kerak. Shuningdek, sport faoliyatiga oid anjumanlarda murabbiylar ko'pincha zaif ruhiy holatlarning paydo bo'lishi, uni tartibga solish haqidagi masalalarni ilmiy muhokama qilishlari kerak, chunki haddan ziyod zo'riqish bilan shug'ullanish sportchi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [2]. Musobaqalar oldida murabbiy nafaqat

sportchilarga psixologik ta'sir ko'rsatishi, o'ziga ishonchni oshirishi va ularda g'alabaga erishish uchun o'z his-tuyg'ularini boshqarish imkoniyatini shakllantirishi kerak. Bu jarayonda sport psixologi murabbiyga psixologik treningni tashkil qilish uchun yordam beradi.

Sportchilarga raqobatning o'tgan bosqichini yaxshi tushuntirish va undan keyingi ishlarni bajarishda oqilona usullarni tanlash, sportchi xatti-harakatlarini hamda raqobat ahvolini ob'ektiv baholay olishi lozim sanaladi.

Tadqiqotchi R.M. Zagaynov izlanishlari shuni ko'rsatadiki, sportchilar murabbiylarni tez-tez bezovta qilsalar, ulardagi tashvishlar ancha kamayadi [3]. Murabbiysiz o'ynashda sportchilarning xavotirlik darajasi ko'payadi masalan, raqobat paytida pauzaning yetishmasligi.

Xulosa qilib aytganda, murabbiyning musobaqalarda sportchilar bilan aloqalarining o'ziga xosligi ham natijalarga katta ta'sir etadi.

Tabiiyki, murabbiy tanlovda sportchiga ko'proq e'tibor berishni xohlaydi. Ammo bu holat barcha murabbiylarda bir xilda emas.

Birinchidan, bu sportchida achinish tuyg'usini namoyon etadi va u o'z uslubidagi qiyinchiliklar haqida o'ylashga tushadi.

Ikkinchidan, bu g'ayriinsoniylik samimiylik deb hisoblanishi mumkin. Natijada, sportchi noto'g'ri xulosalar chiqarishi va murabbiyni nohaqlikda ayblashi mumkin. Ilmiy manbalarni tahlil qilish professional kasbiy konsepsiyaning mohiyatini, uning tarkibiy qismlarini, shakllari va shakllanish usullarini tushunish uchun turli yondashuvlarni tahlil etishni taklif etadi. Kasbiy yetuklikning mohiyatini aniqlashning qiyinligi esa, pedagogikada ko'p qirrali hodisaning bir necha jihatlari borligi bilan belgilanadi. A.Ya. Korx fikricha, kasbiy yetuklik quyidagi jihatlar bilan aniqlanadi [5].

– professionalizm ko'rsatkichi;
– kasbiy ta'limning maqsadi va natijasi;
– kasbiy faoliyatning holati;
– muayyan kasbiy rolning funksiyalarini tushuntiruvchi tavsifnoma va hokazo.

Zamonaviy pedagogikada kasbiy yetuklik mohiyatini tushunishning bir necha yondashuvlari mavjud. Kasbiy yetuklik yondashuvi mutaxassislik malakasini namuna sifatida belgilaydi, bu mutaxassislikning umumiy talablari va uning kasbiy faoliyatining predmeti sifatida individual rivojlanishini o'z ichiga oladi. Bundan farqli o'laroq, A.K. Markova professional malaka bo'yicha ish e'tiborga molik ishlar olib boradi, pedagogik faoliyat yetarli darajada yuqori o'rganiladi, o'qituvchi shaxsi yaxshi ta'lim va ta'lim natijalari bilan baholanadi. Uning fikricha, malakali psixik xususiyatlar, ya'ni aql-idrok faoliyatda mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish imkonini beradi[6].

V.P. Nepapolov ham kasbiy yetuklik borasida izlanishlar olib borib, uni pedagogik faoliyat uchun nazariy va amaliy tayyorgarlik asosida pedagogik masalalar va muammolar yechimlarini ishlab chiqishga imkon beradigan va ushbu faoliyatda ijodiy yondoshishga tayyor bo'lgan, shaxsning integral imkoniyatlaridir deb ta'riflaydi [7]. Umuman olganda, murabbiyning shaxsi bu - o'zini o'zi rivojlantirish mazmunida namoyon bo'ladi.

**XULOSA**

Sport sohasida murabbiylik faoliyatini olib borish, bo'lajak murabbiylarning faoliyat sub'ekti sifatidagi intergrativ o'ziga xos xususiyatlari, qator insoniy fazilatlar turkumi bilan xarakterlanishi mazkur bob ma'lumotlari sharhida o'z aksini topdi. Demak, kasbiy psixologik tayyorgarlik o'z-o'zidan kasbiy pedagogik rivojlanish jarayoni bilan o'zaro uyg'un hisoblanar ekan. Murabbiyda kasbiy professional xususiyatlar qanchalik darajada yuqori bo'lsa, faoliyatga psixologik tayyorgarlik ham shuncha yuqori darajada namoyon bo'lishi aniqlandi. Kasbiy psixologik tayyorgarlikning barcha komponentlari asosan, murabbiy shaxsining xarakterologik sifatlari bilan bog'liq. Bo'lg'usi murabbiylarda kognitiv komponent qanchalik darajada yaxshi rivojlangan bo'lsa, kasbiy faoliyatda o'z-o'zini anglash, maqsadli jarayonlarni bilish, boshqa insonlarning ichki dunyosi va

holatlarini baholay olishi, g‘alaba va mag‘lubiyatga to‘g‘ri baho bera olish, turli kutilmagan vaziyatlarga va stress vaziyatlariga chidamlilik, tashabbuskorlik, hamdardlik, ijtimoiy dadillik, psixologik chidamlilik, kasbiy kamolot sari faollik, sport sohasining istiqbollaridan xabardorlik, o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishning barcha dasturlaridan xabardorlik kabi sifatlarning shakllanganligi, kasbiy faoliyatning samaradorligini ta’minlovchi psixologik shartlar sifatida xizmat qiladi.

Kasbiy psixologik tayyorgarlikning metodologik masalalari o‘z mazmunida, pedagogik faoliyatning barcha jihatlari, kompetentlik, kasbiy madaniyat, kasbiy refleksiya, ijtimoiy – psixologik kompetensiya, birgalikdagi hamkorlik faoliyati, mashhur murabbiy bo‘lish, kelajakda yuqori natijalar erishish kabilar bilan asoslanishi zarur. Mazkur bob ma’lumotlari tahlili, bo‘lajak murabbiylarni kasbiy tayyorlash bilan bog‘liq ayrim masalalar ya’ni ularni o‘qitish va tayyorlashning yangi ilg‘or, innovatsion, psixologik kopsepsiyalarini tizimlashtirish masalalarini kengroq psixodiagnostik o‘rganishni nazarda tutadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Горбунов, Г.Д. Психопедагогика спорта. – 2-е изд. – М.: Советский спорт, 2006. – С. 98 –107.

2. Григорьянц И.А. Психолого-педагогическое мастерство современного тренера-преподавателя.// Спортивный психолог. – Москва, 2006. № 1. – С. 4 – 8.

3. Загайнов Р.М. Психологическое мастерство тренера и спортсмена. – М.: Советский спорт, 2005. – 236 с.

4. Ильин Е.П. Дифференциальная психофизиология. СПб.: Питер, 2001. – 464 с.

5. Корх А.Я. Книга спортсмена, тренера и команды единомышленников /В.А. Корх, Н.Л. Корх; Российский гос. ун-т физ. культуры, спорта и туризма. – М.: Флинта. Наука, 2004. – 368 с.

6. Маркова А.К. Формирование мотивации учения: Кн. для учителя /А.К. Маркова, Т.А. Матис, А.Б. Орлов. - М.: Просвещение, 1990. – 192 с.

7. Непопалов В.Н. Профессиональная деятельность и задачи подготовки спортивного психолога / Непопалов В.Н., Корх Н.Я. // Юбилейный сборник трудов ученых РГАФК, посвященный 80-летию академии. - М.: 1998. - Т. 4. – С. 133-141.

**Алишеров Мухиддина Мадамин угли**
Заместитель декана Наманганского государственного университета Сиртки (специальное совместительство)
E-mail: muhiddina@mail.ru

**ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА ТРЕНЕРА И ИХ ЗНАЧЕНИЕ**

**Аннотация.** В данной статье представлен анализ исследований наших отечественных и зарубежных ученых о профессиональных качествах тренера в процессе подготовки спортсменов, их значении и специфике.

**Ключевые слова:** тренер, спортсмены, профессиональные качества, профессиональная деятельность, подготовка спортсменов.

**Alisherov Muhiddin Madamin ugli**
Deputy Dean of Namangan State University Sirtqi (special part-time)
E-mail: muhiddina@mail.ru

**PROFESSIONAL QUALITIES OF THE COACH AND THEIR IMPORTANCE**

**Annotation.** This article describes the analysis of the research work of our country and foreign scientists on the professional qualities of the coach in the process of training athletes and their importance and specifics.

**Key words:** coach, athletes, professional qualities, professional activity, training of athletes